



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari | 10 |
| <i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati..... | 14 |
| <i>Bolqiyev Axmad</i> | |
| Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish | 17 |
| <i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i> | |
| Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar | 22 |
| <i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i> | |
| Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults | 28 |
| <i>G. R. Tolibova</i> | |
| Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" | 31 |
| <i>Garifullina Alsu Robert qizi</i> | |
| Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish | 35 |
| <i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i> | |
| Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari | 38 |
| <i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i> | |
| Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida)..... | 42 |
| <i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i> | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari | 47 |
| <i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i> | |
| Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari | 52 |
| <i>Mamanazar Djumayev</i> | |
| Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish | 61 |
| <i>I. B. Matmuratova</i> | |
| Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni | 65 |
| <i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i> | |
| Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish | 69 |
| <i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i> | |
| Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari..... | 73 |
| <i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i> | |
| Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ... | 77 |
| <i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i> | |
| Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi | 81 |
| <i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i> | |
| Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati | 84 |
| <i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish | 88 |
| <i>Shavqiddin Burxonov</i> | |
| Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem..... | 91 |
| <i>Temirov Murodjon Anvarovich</i> | |
| O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari... | 95 |
| <i>Umarov Qobiljon</i> | |



| | |
|---|-----|
| Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari 98 Umurov Sharif Rajabovich | 98 |
| Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash 102 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi | 102 |
| Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта 106 Панжиева Назокат Нормаматовна | 106 |
| Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации 111 Тураева Дилфуза Даминовна | 111 |

MAKTAB O'QUVCHILARINING MUSIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Abilov Muslim Normuxammadovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Musiqiy ta'lim kafedrası dotsenti

ORCID-0000-0003-3704-6929

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot maqsadi musiqiy idrok, tahliliy eshitish, obrazli tasavvur va ijodiy tafakkur komponentlarini uzviy rivojlantirishni ta'minlaydigan o'qitish muhiti omillarini aniqlashdan iborat. Metodologiya sifatida kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, musiqiy-psixologik tahlil hamda sinfdagi kuzatuv va diagnostik topshiriqlarga tayangan holda pedagogik shartlar tizimi taklif etiladi. Ilmiy yangilik o'quvchi musiqiy tajribasini bosqichma-bosqich boyitish, tinglash va ijro integratsiyasi, refleksiya va baholash mezonlarini bir tizimga keltirish orqali musiqiy tafakkurni maqsadli boshqarish modelini asoslashda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: musiqiy tafakkur; musiqiy idrok; tahliliy eshitish; obrazli tasavvur; ijodiy faoliyat; pedagogik shart-sharoit; kompetensiya; refleksiya.

Abstract: This article provides a theoretical and practical basis for pedagogical conditions that serve to develop the musical thinking of schoolchildren. The study aims to identify environmental and instructional factors that foster musical perception, analytical listening, imagery-based representation, and creative thinking as interconnected components. Methodologically, it relies on competency-based and activity-oriented approaches, music-psychological analysis, classroom observation, and diagnostic tasks, resulting in a system of pedagogical conditions. Scientific novelty lies in proposing a model for purposeful guidance of musical thinking through step-by-step enrichment of learners' musical experience, integration of listening and performance, and the inclusion of reflection and assessment criteria within a unified instructional structure.

Key words: musical thinking; musical perception; analytical listening; mental imagery; creative activity; pedagogical conditions; competence; reflection.

Аннотация: В данной статье представлены теоретические и практические основы педагогических условий, способствующих развитию музыкального мышления школьников. Цель исследования состоит в выявлении факторов образовательной среды, обеспечивающих взаимосвязанное развитие музыкального восприятия, аналитического слуха, образного представления и творческого мышления. Методология опирается на компетентностный и деятельностный подходы, музыкально-психологический анализ, а также наблюдение и диагностические задания в классе, на основе чего предлагается система педагогических условий. Научная новизна проявляется в обосновании модели целенаправленного управления музыкальным мышлением через поэтапное обогащение опыта ученика, интеграцию слушания и исполнения, введение рефлексии и критериев оценивания в единую структуру.

Ключевые слова: музыкальное мышление; музыкальное восприятие; аналитический слух; образное представление; творческая деятельность; педагогические условия; компетенция; рефлексия.

KIRISH

Maktab ta'limi tizimida musiqa fanining samaradorligi ko'pincha repertuar tanlovi yoki tashkiliy masalalar bilan izohlanadi, biroq amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchining musiqiy tafakkuri shakllanmagunicha tinglash ham, kuylash ham ko'proq takroriy harakat darajasida qolib ketishi mumkin. Musiqiy tafakkur deganda musiqiy obrazni idrok etish, uni ichki eshitish orqali qayta qurish, shakl va ifoda vositalari munosabatlarini tahlil qilish, kontekstga ko'ra baholash hamda ijodiy yechim ishlab chiqishga qodir aqliy faoliyat tizimi tushuniladi. Demak, musiqiy tafakkur o'quvchining nafaqat "eshitishi", balki "musiqiy ma'noni anglash" jarayonini boshqaruvchi asosiy mexanizmdir. Shu bois tadqiqotning dolzarbligi musiqiy tafakkurni rivojlantirishni alohida maqsad sifatida belgilash va unga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asoslash zaruratidan kelib chiqadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi musiqa pedagogikasi, psixologiya va estetika fanlarining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning musiqiy idroki, ijodiy qobiliyati va estetik didini rivojlantirish orqali ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash dolzarb pedagogik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu masala yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Musiqiy tafakkur tushunchasining psixologik-pedagogik asoslari Lev Vygotsky, Aleksei Leontiev va Sergei Rubinsteinnlarning faoliyat nazariyasi hamda tafakkurning rivojlanish konsepsiyalarida o'z aksini topgan. Ularning fikricha, tafakkur shaxsning faoliyati jarayonida shakllanib, ta'lim va tarbiya vositasida takomillashadi. Musiqiy faoliyat esa o'quvchilarning hissiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir.

Musiqa pedagogikasi sohasida Dmitry Kabalevskyning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim o'zining musiqa ta'limi konsepsiyasida bolalarni musiqa san'atini ongli idrok etishga, musiqiy obrazlarni tahlil qilishga va estetik baholashga o'rgatish zarurligini ta'kidlagan. Uning metodikasida tinglash, kuylash va ijodiy faoliyat o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy vositalari sifatida qaraladi.

Musiqiy qobiliyat va tafakkurning rivojlanishi masalalari Boris Teplov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tadqiqotchi musiqiy qobiliyatlarning tabiiy imkoniyatlar bilan birga pedagogik ta'sir ostida rivojlanishini asoslab bergan. Uning ilmiy xulosalariga ko'ra, ritm hissi, ladni sezish va musiqiy xotira musiqiy tafakkurning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida, zamonaviy raqamli texnologiyalar va milliy musiqa merosini integratsiyalashgan holda tadqiq etish yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi va musiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali pedagogik modelini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Musiqiy tafakkurning tarkibiy-komponent tahlili masalani faqat psixologik fenomen sifatida emas, balki didaktik boshqariladigan jarayon sifatida ko'rishni talab qiladi. O'quvchi musiqani tinglaganda bir vaqtning o'zida sezgi darajasida tovush rangini qabul qiladi, idrok darajasida ritm va intonatsion harakatni ajratadi, tafakkur darajasida esa musiqiy nutqning mantiqiy rivojini, avj va yechimni, obrazlar almashinuvini tushuntirishga urinadi. Bu jarayonlarning har biri o'z-o'zidan to'liq shakllanmaydi: ular uchun mos ta'lim vazifalari, o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari, eshitish tajribasini to'plovchi mashqlar, shuningdek, o'quvchining mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi muhit zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogik shart-sharoitlar deganda o'quv maqsadi, mazmun, metod, vosita, baholash va psixologik iqlimning o'zaro moslashgan, bir-birini kuchaytiradigan tizimi tushuniladi.

Tadqiqotning konseptual asosi sifatida kompetensiyaviy yondashuv musiqiy tafakkurni natija sifatida aniq ko'rsatkichlar orqali ifodalash imkonini beradi: o'quvchi musiqiy asarning xarakterini so'z bilan izohlashi, asosiy intonatsion yadroni ajratishi, oddiy shakli tuzilmani farqlashi, tanlangan ifoda vositalarini sabab-natija jihatidan tushuntirishi va o'z ijrosida shunga mos badiiy yechim tanlay olishi lozim. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa bu natijalarga faqat tayyor bilim berish orqali emas, balki tinglash, kuylash, ritmik harakat, elementar improvizatsiya va musiqiy muloqot kabi faoliyat turlari birligida erishilishini asoslaydi. Musiqiy tafakkur aynan faoliyat jarayonida "ishlaydi": u tinglashda tahlil qiladi, ijroda tekshiradi, muhokamada umumlashtiradi va refleksiya o'zgaradi. Shuning uchun pedagogik shart-sharoitlarni belgilashda metodik xilma-xillik emas, balki faoliyat turlarining didaktik mantiq asosida ketma-ketlikda va integratsiyada qo'llanishi hal qiluvchi mezon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi asosiy pedagogik shart-sharoit sifatida musiqiy idrokni maqsadli shakllantiruvchi tinglash madaniyatini tashkil etish ajratib ko'rsatiladi. Amaliyotda tinglash ko'pincha passiv jarayon bo'lib qoladi: asar qo'yiladi, keyin umumiy taassurot so'raladi. Bunday yondashuv musiqiy tafakkurni faollashtirmaydi, chunki o'quvchi nimani eshitishi, nimalarga diqqat qaratishi, qaysi belgilar asosida xulosa chiqarishini bilmaydi. Maqsadli tinglash esa oldindan qo'yilgan kognitiv vazifa bilan boshlanadi: masalan, "intonatsion burilish qayerda o'zgaradi", "ritm qaysi joyda kuchayadi", "avj nuqtasi nima bilan tayyorlanadi". Bunda o'qituvchi savollarni musiqaning tabiatiga mos ravishda bosqichlab beradi: avval umumiy xarakter va kayfiyat, so'ng ifoda vositalari, keyin shakliy aloqalar. Ushbu shartning samaradorligi o'quvchilarning tahlilii eshitishi rivojiga bevosita bog'liq bo'lib, musiqiy psixologiya va didaktika bo'yicha tadqiqotlar bilan mos keladi [2: 5]. Tinglash madaniyatini shakllantirishda qisqa fragmentlar bilan ishlash, qayta tinglash, solishtirish, "savol-javob intonatsiyalari"ni ajratish kabi usullar o'quvchini faol eshitishga olib kiradi; natijada musiqiy obraz "noaniq taassurot"dan "mazmunli tushuncha"ga aylanadi.

Ikkinchi pedagogik shart-sharoit tinglash va ijroning didaktik integratsiyasini ta'minlashdir. Musiqa darslarida kuylash ko'pincha texnik jihatga qisqarib qoladi: to'g'ri kuylash, ritmga tushish, matnni yodlash. Biroq musiqiy tafakkur uchun ijro, eng avvalo, musiqiy ma'noni gavdalantirish vositasidir. Agar o'quvchi tinglagan asardagi intonatsion mantiqni o'z ovozida yoki cholg'uda qayta tiklasa, u analiz natijasini amalda tekshiradi; bu esa musiqiy tafakkurning reflektiv mexanizmini ishga tushiradi. Integratsiya shuni anglatadiki, tinglashdagi tahlil ijro vazifasiga ulanadi: masalan, fraseirovka, dinamik kontrast, nafas olish joylari, urg'u va artikulyatsiya haqida tinglashda kuzatilgan belgilar ijroda ongli bajariladi. Bu yondashuv o'quvchida "eshitaman–tushunaman–ijro etaman–baholayman" siklini shakllantirib, musiqiy tafakkurni barqaror kompetensiyaga aylantiradi ^[1; 3].

Uchinchi pedagogik shart-sharoit sifatida musiqiy til birliklarini o'quvchining yosh xususiyatlariga mos, ammo ilmiy mantiqqa ega tarzda kiritish muhimdir. Musiqiy tafakkur "terminlarsiz" ham mavjud bo'lishi mumkin, lekin u holda o'quvchi o'z fikrini aniq ifodalashda qiynaladi, demak refleksiya va muloqot cheklanadi. Shu bilan birga, ortiqcha nazariylashtirish ham musiqiy tajribani so'ndiradi. Shuning uchun terminlar musiqiy amaliyotdan kelib chiqib, minimal va zarur darajada beriladi: intonatsiya, ritm, temp, dinamika, registr, timbr, kuplet-refren, savol-javob kabi tushunchalar tinglash va ijro jarayonida "ko'rsatib" o'rgatiladi. Bunda o'qituvchi har bir atamani tayyor ta'rif sifatida emas, balki musiqiy hodisani nomlash ehtiyoji sifatida keltirib chiqaradi: o'quvchi farqni eshitadi, so'ng uni atama bilan mustahkamlaydi. Natijada musiqiy tafakkur verbal tafakkur bilan bog'lanadi, bu esa tahlil va umumlashtirishning muhim shartidir ^[4; 6].

To'rtinchi pedagogik shart-sharoit ijodiy faoliyatni, ayniqsa elementar improvizatsiya va kompozitsion tajribani darsning tabiiy qismiga aylantirishdir. Musiqiy tafakkur faqat mavjud asarlarni tushunish bilan cheklanmaydi; u yangi musiqiy yechim ishlab chiqish qobiliyatida ham namoyon bo'ladi. O'quvchi kichik ritmik formulani o'zgartirib ko'rsa, berilgan intonatsiyadan "savol-javob" tuzsa yoki ikki-uch taktli yakun yasasa, u musiqiy mantiqni ichkaridan his qiladi. Muhim jihat shundaki, ijodiy topshiriqlar "erkinlik" shiori ostida nazoratsiz qolmasligi kerak; ular aniq cheklovlar bilan berilganda tafakkurni kuchliroq faollashtiradi: masalan, "faqat pentatonika tovushlari", "faqat forte-piano kontrasti", "faqat 2/4 o'lchov". Cheklovlar o'quvchini vositalarni ongli tanlashga majbur qiladi, demak musiqiy tafakkur sabab-natija munosabatlari orqali rivojlanadi. Bunday yondashuv o'quvchi motivatsiyasini ham oshiradi, chunki u o'z musiqiy g'oyasini namoyon qilish imkonini oladi, biroq bu jarayon badiiy mezonlar asosida yo'naltiriladi ^[2; 7].

Beshinchi pedagogik shart-sharoit sifatida baholash va refleksiyaning aniq mezonlarga asoslangan tizimini ishlab chiqish zarur. Musiqa darsida baholash ko'pincha subyektiv taassurotga tayanadi: "yaxshi kuyladi", "faol qatnashdi". Musiqiy tafakkur rivojini nazorat qilish uchun esa diagnostik ko'rsatkichlar kerak: o'quvchi asar xarakterini ifoda vositalari bilan bog'lab tushuntira oladimi, shakli bo'linishlarni eshitib ajrata oladimi, ijroda fraza va dinamika mantiqini saqlaydimi, solishtirishda asosli xulosa chiqara oladimi. Bunday mezonlar o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham o'sish nuqtalarini ko'rsatadi. Refleksiya esa faqat "yoqdi-yoqmadim" darajasida emas, "nimani eshitdim, nimani tushundim, nimani keyingi safar boshqacha qilaman" mantiqida qurilganda ta'limiy qiymat kasb etadi. Refleksiv savollar musiqiy tafakkurni metakognitiv bosqichga olib chiqadi, ya'ni o'quvchi o'z eshitish va fikrlash jarayonini boshqarishni o'rganadi ^[1; 5].

Oltinchi pedagogik shart-sharoit o'qituvchining metodik kompetensiyasi va sinfdagi psixologik iqlim bilan bog'liq. Musiqiy tafakkur rivojlanishi uchun o'quvchi xatodan qo'rqmaydigan, musiqiy fikrini ayta oladigan, savol berishga jur'at qiladigan muhit zarur. Aks holda u tinglashda ham, ijodiy topshiriqlarda ham passiv qoladi. O'qituvchi bu muhitni baholashning qo'llab-quvvatlovchi shakllari, musiqiy muloqot madaniyati, kichik guruhlarda ishlash va tengdosh baholash elementlari orqali yaratadi. Metodik kompetensiya esa repertuari tanlashda ham ko'rinadi: asarlar o'quvchining yoshiga mos bo'lishi bilan birga, musiqiy tafakkurni rivojlantiradigan "kognitiv qiyinchilik"ni ham o'z ichiga olishi kerak. Juda sodda material tafakkurni uyg'otmaydi, juda murakkabi esa motivatsiyani pasaytiradi; demak didaktik muvozanat muhim. Repertuar tanlashda milliy va jahon musiqasi namunalarning nisbatini saqlash, turli janr va uslublarni solishtirish orqali musiqiy tafakkur doirasini kengaytirish mumkin ^[3; 6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi shart-sharoitlar tizimli qo'llanganda, musiqiy tafakkur rivoji darsning "qo'shimcha natijasi" emas, balki markaziy didaktik natija sifatida boshqariladi. Bu yerda boshqaruv deganda o'qituvchining qat'iy buyruq uslubi emas, balki o'quvchining musiqiy tajribasini maqsadli tashkil etish, kognitiv vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, faoliyat turlarini bir-biriga ulash va natijani mezonlar asosida ko'rsatib borish tushuniladi. Natijada o'quvchi musiqani tinglashda "tovushlar ketma-ketligi"ni emas, "mazmunli musiqiy nutq"ni anglaydi; ijroda esa mexanik takror emas, badiiy yechimni izlash ustuvor bo'ladi.



Shuningdek, musiqiy tafakkur rivoji umumiy ta'lim kompetensiyalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi: diqqatni jamlash, xotira, taqqoslash, mantiqiy izohlash va estetik baholash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq:

- ta'lim mazmunining yosh va individual xususiyatlarga mos tashkil etilishi;
- musiqiy faoliyatning turli shakllari (tinglash, kuylash, cholg'u ijrochiligi, ijodiy topshiriqlar) integratsiyasi;
- interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- milliy va jahon musiqa madaniyati namunalari uyg'un qo'llanilishi;
- o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahorati hamda ijodiy yondashuvi;
- musiqiy-estetik muhitning shakllantirilishi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmuasini talab etadi:

- maqsadli tinglash madaniyatini tashkil etish va tahliliy eshitishni bosqichlab rivojlantirish;
- tinglash va ijroni didaktik integratsiyada olib borish orqali "tushunish–bajarish–baholash" siklini shakllantirish;
- musiqiy til tushunchalarini amaliy tajriba bilan bog'lab, yoshga mos ravishda kiritish;
- elementar improvizatsiya va kompozitsion topshiriqlar bilan ijodiy tafakkurni rag'batlantirish;
- mezonli baholash va refleksiya orqali o'quvchining musiqiy fikrlashini ongli boshqaruv darajasiga ko'tarish;
- o'qituvchining metodik kompetensiyasi hamda qo'llab-quvvatlovchi psixologik iqlimni ta'minlash.

Ushbu shartlar birgalikda qo'llanganda musiqiy tafakkur o'quvchining barqaror ta'limiy yutug'iga aylanadi va musiqa darsining badiiy-tarbiyaviy salohiyatini sezilarli oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя: учебное пособие. Москва: Просвещение, 1990. 175 с.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт, 1999. 352 с.
3. Кабалевский Д. Б. Воспитание ума и сердца: книга для учителя. Москва: Просвещение, 1984. 224 с.
4. Назайкинский Е. В. О психологии музыкального восприятия. Москва: Музыка, 1972. 383 с.
5. Swanwick K. Teaching Music Musically. London: Routledge, 1999. 186 p.
6. Умаров М. Музыка таълими методикаси: олий таълим муассасалари учун ўқув қўлланма. Тошкент: Ўқитувчи, 2015. 240 б.
7. Elliott D. J. Music Matters: A New Philosophy of Music Education. New York: Oxford University Press, 1995. 392 p.
8. Abilov M. N. Development of musical thinking in students in the system of continuing education as a pedagogical problem. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. Volume 2021 Issue 02 Article 11 5-15-2021 119-128
9. <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2021/iss02/11>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.